

YAKKABOG‘ TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA GEOGRAFIK SALOHIYAT DINAMIKASI TAHLILI (2015–2025-YILLAR)

Sultonov Shuxrat Adxamovich

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Xolboyeva Zarina Qaxramon qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi,
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Qahhorova Nilufar Saidmurod qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Ulashova Laylo Toxir qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi,
O‘zbekiston, Shahrisabz shahri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumani misolida hududiy iqtisodiyotning 2015–2025-yillar oralig‘idagi o‘n yillik rivojlanish dinamikasi tadqiq etilgan. Maqolada tumanning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar salohiyati va ularning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, agrosanoat majmuasidagi tarkibiy o‘zgarishlar, sanoatlashuv jarayonlari va eksport salohiyatining kengayishi statistik ma’lumotlar asosida yoritib berilgan. Tadqiqot yakunida tumanni istiqbolda barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Yakkabog‘ tumani, iqtisodiy dinamika, geografik o‘rin, agrosanoat, eksport, tabiiy resurslar, tahlil, barqaror rivojlanish.

АНАЛИЗ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО

РАЗВИТИЯ И ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА

ЯККАБАГСКОГО РАЙОНА (2015–2025 гг.)

Султонов Шухрат Адхамович

доцент Шахрисабзского государственного педагогического института,
Узбекистан, г. Шахрисабз

Холбоева Зарина Кахрамон кизи

студентка Шахрисабзского государственного педагогического института,
Узбекистан, г. Шахрисабз

Каххорова Нилуфар

студентка Шахрисабзского государственного педагогического института

Узбекистан, город Шахрисабз

Улашова Лайло

студентка Шахрисабзского государственного педагогического института,
Узбекистан, город Шахрисабз

Аннотация. В данной статье на примере Яккабагского района Кашкадарьинской области проведен анализ динамики социально-экономического развития региональной экономики за период 2015–2025 гг. Рассматриваются географическое положение района, потенциал природных ресурсов и их влияние на экономический рост. На основе статистических данных освещены структурные изменения в агропромышленном комплексе, процессы индустриализации и расширение экспортного потенциала. В заключении предложены научно обоснованные рекомендации по обеспечению устойчивого развития района в перспективе.

Ключевые слова: Яккабагский район, экономическая динамика, географическое положение, агропромышленный комплекс, экспорт, природные ресурсы, анализ, устойчивое развитие.

**ANALYSIS OF THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT AND GEOGRAPHICAL POTENTIAL OF YAKKABOG
DISTRICT (2015–2025)**

Sultonov Shukhrat Adkhamovich

Associate Professor, Shahrissabz State Pedagogical Institute,
Uzbekistan, Shahrissabz

Kholboyeva Zarina Qahramon qizi

Student, Shahrissabz State Pedagogical Institute,
Uzbekistan, Shahrissabz

Kahhorova Nilufar Saidmurod kizi

student of the Shahrissabz State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Shahrissabz city

Ulashova Laylo Tokhir kizi


student of the Shahrissabz State Pedagogical Institute,
Uzbekistan, Shahrissabz city

Abstract. This article analyzes the dynamics of socio-economic development of the regional economy over the period 2015–2025 using the example of Yakkabog district in the Kashkadarya region. The study examines the geographical location of the district, the potential of natural resources, and their role in economic growth. Based on statistical data, structural changes in the agro-industrial complex, industrialization processes, and the expansion of export potential are highlighted. The study concludes with scientifically grounded recommendations aimed at ensuring the sustainable development of the district in the future.

Keywords: Yakkabog district, economic dynamics, geographical location, agro-industrial complex, export, natural resources, analysis, sustainable development.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar sharoitida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, aholi turmush darajasini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, Qashqadaryo viloyatining o‘ziga xos tabiiy-geografik va demografik xususiyatlariga ega bo‘lgan Yakkabog‘ tumani misolida hududiy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish yo‘llarini belgilash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Hududiy iqtisodiyot va geografik joylashuvning ishlab chiqarishga ta‘siri masalalari ko‘plab iqtisodchi va geograf olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, aynan Yakkabog‘ tumanining 2015–2025 yillar oralig‘idagi o‘n yillik transformatsiyasi, sanoatlashuv jarayonlari va agrosanoat majmuasidagi tarkibiy o‘zgarishlar alohida tizimli tahlilga muhtoj.



1-rasm. Qashqadaryo viloyati kartasida Yakkabog' tumani joylashuvi

Yakkabog' tumanining so'nggi o'n yillikdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini statistik ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil qilish, tuman iqtisodiyotining drayver sohasini aniqlash va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolani tayyorlash jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy-statistika, iqtisodiy-geografik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanildi. Tahlillar davomida tuman statistika bo'limi ma'lumotlari va hududiy rivojlanish dasturlari natijalariga tayanildi.

Maqolada Yakkabog' tumanining agrar yo'nalishdan agrosanoat va xizmat ko'rsatish markaziga aylanish bosqichlari ochib berilgan. Shuningdek, tumandagi demografik o'sishning mehnat bozori va infratuzilmaga ta'siri 2025-yilga qadar bo'lgan dinamikada yoritilgan.

Yakkabog' tumanining geografik o'rni va tabiiy resurslari tahlili.
Geografik o'rni: Yakkabog' tumani Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqiy qismida, Hisor tizmasining g'arbiy tarmoqlari va Qashqadaryo vohasining tutashgan qismida joylashgan. Tuman shimoldan Kitob va Shahrisabz, g'arbdan Chiroqchi va Qarshi, janubdan esa Qamashi tumanlari bilan chegaradosh. Uning

geografik joylashuvi "tog'-tekislik" profiliga ega bo'lib, bu hududda ham dehqonchilik, ham chorvachilik, ham tog'-kon sanoatini rivojlantirishga zamin yaratadi.



2-rasm. Tuman hududini landshaft tuzilishi

Relyefi va tuproq qoplami: Tuman relyefi sharqdan g'arbga qarab pasayib boradi. Sharqiy qismi baland tog'lar (Hisor tizmasi) va tog' oldi adirlaridan iborat bo'lsa, markaziy va g'arbiy qismi keng tekisliklardan tashkil topgan. Hududda asosan bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib, ular daryo qayirlarida o'ta unumdor allyuvial-o'tloqi tuproqlar bilan almashadi. Bu esa tumanda bog'dorchilik (ayniqsa, mashhur Yakkabog' olmalari) va g'allachilikning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Gidrografik tarmoqlari: Tuman iqtisodiyotining "qon tomiri" uning gidrografik resurslari, xususan, Yakkabog'daryo hisoblanadi. Daryo o'z boshlanishini Hisor tog'laridan oladi va tuman hududini obihayot bilan ta'minlaydi. Shuningdek, tumandagi yer osti suvlari zaxiralari ham qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishda (masalan, artezian quduqlar orqali sug'orish) muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Iqlimiy salohiyati: Yakkabog‘ tumani keskin kontinental iqlimga ega, ammo tog‘ oldi hududi bo‘lgani uchun viloyatning markaziy tekislik qismlariga nisbatan yog‘ingarchilik miqdori yuqoriroq (yiliga 400–500 mm). Bu ko‘rsatkich lalmi dehqonchilik va chorvachilik uchun tabiiy yaylovlar mavjudligini anglatadi.

Tabiiy boyliklari: Tuman yer osti va yer usti boyliklariga boy. Bu yerda qurilish materiallari (tosh, qum-shag‘al, gips), shuningdek, Hisor tog‘lari etaklarida foydali qazilma konlari mavjudligi sanoat korxonalarini xomashyo bilan ta‘minlash imkonini beradi. So‘nggi yillarda tuman hududidagi rekreatsiya resurslari (so‘lim tog‘ manzaralari va shifobaxsh suvlari) ekoturizm va sog‘lomlashtirish turizmi uchun yangi iqtisodiy resurs sifatida

Yakkabog‘ tumanining 10 yillik iqtisodiy rivojlanish tahlili (2015–2025). So‘nggi o‘n yillikda tuman iqtisodiyoti faqatgina qishloq xo‘jaligiga tayanib qolmasdan, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari hisobiga ham sezilarli darajada diversifikatsiya qilindi.

1. Sanoat va Tadbirkorlikning o‘shishi

2015-yilda tumanda sanoat korxonalari asosan paxta va g‘allani qayta ishlash bilan cheklangan bo‘lsa, 2025-yilga kelib:

Kichik sanoat zonalari: Tumanda 3 ta yangi kichik sanoat zonasi tashkil etildi.

Meva-sabzavotni qayta ishlash: "Yakkabog‘ olmasi" brendi ostida mahsulotlarni quritish, saralash va qadoqlash korxonalari soni 2,5 baravarga ortdi.

Tadbirkorlik: 2015-yilda 1000 nafar aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni kam bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib oilaviy tadbirkorlik va o‘zini-ozini band qilish ko‘rsatkichi viloyatda yetakchi o‘rinlarga chiqdi.

2. Qishloq xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar

Yakkabog‘ - viloyatning eng yirik bog‘dorchilik markazi. 10 yillik dinamika shuni ko‘rsatadiki:

Intensiv bog'lar: Eskirgan past hosilli bog'lar o'rniga intensiv va yarim intensiv bog'lar barpo etildi. Bu esa hosildorlikni har gektardan 15-20 sentnerdan 40-50 sentnergacha oshirdi.

Suv tejoychi texnologiyalar: 2015-yilda tomchilatib sug'orish deyarli qo'llanilmagan bo'lsa, 2025-yil holatiga ko'ra tuman bog'larining 35-40 foizi aynan tejamkor texnologiyalar asosida sug'orilmoqda.

3. Eksport va tashqi savdo aylanmasi

Tuman eksport salohiyati 10 yil ichida sifat jihatidan o'zgardi:

2015-yil: Eksport tarkibining 80 foizini xomashyo (meva-sabzavot) tashkil etgan.

2025-yil: Eksportda tayyor mahsulotlar (sharbatlar, quritilgan meva mikslari, to'qimachilik mahsulotlari) ulushi 45 foizdan oshdi.

Geografiya: Eksport manzillari MDHdan tashqari Germaniya, Polsha va BAA kabi davlatlarga kengaydi.

4. Ijtimoiy-demografik rivojlanish

Aholi sonining ortishi (o'rtacha yillik o'sish 1.8-2.0%) infratuzilmaga bo'lgan talabni oshirdi:

Uy-joy: So'nggi 10 yilda yangi massivlar (masalan, zamonaviy ko'p qavatli uylar) qurilishi jadallashdi.



3-rasm. Tuman hududini landshaft tuzilishi (turizm rivoji uchun eng maqbul hudud)

Ta'lim va tibbiyot: Tuman aholisining raqamli savodxonligi oshishi natijasida servis va xizmat ko'rsatish sohasi (bank, IT, logistika) ulushi yalpi hududiy mahsulotda 30 foizga yetdi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yakkabog' tumani agrosanoat markaziga aylanib bormoqda. Kelgusida iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish uchun:

Tog'li hududlarda ekoturizmni rivojlantirish;

Suv tejavchi texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish) keng joriy etish;

Mahsulotlarni chuqur qayta ishlash texnologiyalarini (klaster tizimi) kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shoimurotov T.Kh., Juraev F.O., Khaydarov K.M., Akhmedov Sh.Sh., Sultonov Sh.A. Issues of groundwater use and protection in the operation of hydrocarbon fields. Экономика и социум 4-2 (131), С. 500-507.

2. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi iqtisodiy islohatlarning borishi to'g'risida ma'lumotnomalar.

3. Qashqadaryo viloyati va Yakkabog‘ tumani statistika boshqarmasi ma’lumotnomalari (2015–2024).

4. Sulstonov Sh.A. Qashqadaryo viloyatida mineral resurslardan foydalanishning geografik jihatlari va tabiatga salbiy ta’siri masalalari. FAN va JAMIYAT Ilmiy-uslubiy jurnal. -№4. 2025-yil. 39-41-betlar.

5. Sulstonov Sh.A., Navotova D.I. O‘zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. - №2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru> , ISSN 2225-1545